
“Qorbobolar karvoni” loyihasi Qo’shtepa tumanida davom etmoqda
Qo’shtepa tumanida start olgan “Qorbobolar karvoni” loyihasi doirasida 100 nafardan
ortiq Qorbobo va Qorqizlar yurtdoshlarimizga Yangi yil shukuhi va bayram kayfiyatini
ulashishda davom etmoqda.

“Qorbobolar karvoni” bugun dastlab “Sohibkor” mahallasi hududida joylashgan
mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga sovg’a-salomlar va ko’tarinki kayfiyat ulashishdi.

Undan so’ng karnay sadolari ostida tumanimizning chekka hududi hisoblangan
“Istiqlol” va “Xo’jaqishloq” mahallalarida bo’lgan Qorbobo va Qorqizlar odamlarga
ko’tarinki kayfiyat, bolajonlarga yo’l davomida bayram sovg’alari ulashishdi.

Qorbobo va Qorqizlar navbatdagi manzilga yo’l olishib, 17, 49 va 10-maktablarning
uyda yakka tartibda ta’lim oluvchi o’quvchilari Irodaxon Abdullaxonova, Mavludaxon
Xolmatjonova, Madina Ismoilovalarning xonadonlariga galma-gal yetib borishdi.
Barchaga birdek yuqori kayfiyat ulashgan musiqiy chiqishlar nafaqat bolajonlar, balki
ularning ota-onasi, bobo, buvijonlariga ham manzur bo’ldi.

2024-12-29 20:41:57